

# “HIBATU-L-HAQOYIQ”DA KELGAN BILIM MAVZUSIDAGI TO‘RTLIKLAR MAZMUNIIY VA SHAKLIIY TAHLILI

## АНАЛИЗ ЗНАЧЕНИЙ И КОМПОЗИЦИОННОЙ ФОРМЫ ЧЕТВЕРОСТИШИЙ ПО ТЕМЕ ЗНАНИЙ В «ХИБАТУ-Л-ХАКАЙИК»

### SEMANTIC AND FORMAL ANALYSIS OF THE QUATUNES ON THE THEME OF KNOWLEDGE IN “HIBATU-L-HAKAYIK

**Abdulazizkhan NIG‘MONOV,**  
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN,  
teacher of the department classical oriental  
literature and source study. a.nigmonov@iiiau.uz  
11, A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan.

DOI: 10.47980/IIAU/2023/2/9

**Annotatsiya.** Inson hayotiga shakl bergan, uning yashashi va prinsiplarini belgilab bergan eng muhim unsur insoniy qadriyatlaridir. Jamiyat a’zolarining hayotida muhim o’rin egallagan qadriyatlar, ta’lim-tarbiya jarayonida ham muhim kategoriya holiga kelgan. Bugungi kunda dunyo ta’lim tizimida har bir jamiyatni bir orada tutgan va tarixan shakllangan qadriyatlarini yosh avlodga yetkazish ustuvor vazifalardan biriga aylanganini ko’rishimiz mumkin. O’zbekiston ta’lim-tarbiya tizimining eng old vazifalaridan biri ham milliy, ma’naviy, madaniy, insoniy va axloqiy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish va ularda bu qadriyatlarni shakllantirishdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda bugungi axborot almashinuvi jadal kechayotgan, kundan kunga yoshlar ongi uchun kurash avj olayotgan davrda bu qadriyatlarni yoshlarga yetkazish va ularda milliy-ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishning ahamiyati yanada ortmoqda. Jamiyatning mavjudligi ana shu qadriyatlarning barqaror va bardavomligiga bog’liqligi, shubhasizdir. Prezidentimiz tomonidan ma’rifatparvar olim Mahmudxo’ja Behbudiyning “Dunyo imoratlari ichida eng ulug’i maktabdir” degan fikriga alohida urg’u berganligi va umumiy o’rta ta’lim tizimida “Tarbiya” fanini joriy qilish zarurligini ta’kidlagani bejiz emas. O’zbek jamiyatida oiladan boshlangan qadriyatlar tarbiyasini, tizimli ravishda o’rta va oliy ta’lim tizimida davom ettirilishi sog’lim va ma’nan yuksak naslning shakllanishi uchun zarur bo’lib bormoqda. Ta’limda yoshlarning faqatgina bilim olish va ko’nikmalarni shakllantirishga e’tibor qaratilishi jamiyat ma’naviy-ijtimoiy qadriyatlarini saqlanib qolishiga, milliy o’zlikka xavf tug’diradi. Natijada jamiyat xudbin, axloqsiz, ma’nan qashshoq a’zolar sonining ortishi bilan tanazzulga yuz tutib boradi. Shu jihatdan olib qaraganda ta’limda bilim va ko’nikma naqadar zarur bo’lsa, milliy-ma’naviy, diniy,

axloqiy, insoniy va ijtimoiy qadriyatlar tarbiysi ham shu qadar zarurdir.

Ushbu maqolaning asosiy mavzusi ham ana shunday asarlardan biri bo’lgan «adiblar adibi, fozillar boshi» deya ulug’langan adib Ahmad Yugnakiy tomonidan uzoq yillik ta’lim-tarbiya natijasida qalamga olingan va pandnoma ruhida «Hibatu-l-haqoyiq» asarida aks etgan qadriyatlardan ayrimlarini tahlil etish va ta’lim-tarbiya jarayonida qo’llanilishini baholashdan iboratdir. Bunda asosiy e’tiborimizni har qanday qadriyatning o’zagi bo’lgan bilim va uning qiymatini, bilimlilik targ’ibi va foydalarini o’zida ifodalagan to’rtliklarga qaratamiz. Zero, axloq va odob, ijtimoiy qadriyatlarning avloddan avlodga ko’chishi bilim va e’tibor berilgan jamiyatdagina bardavom bo’ladi.

O’zida xalqimizning uzoq yillik ma’naviy-ijtimoiy qadriyatlarini, inson kamoloti borasidagi qarashlarini ifodalagan to’rtliklarning bugungi kun ta’lim-tarbiya jarayonida qo’llanilishi va kelajak nasllarning ham ulardan foydalanishi jamiyatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so’zlar:** adabiyot, badiiy tafakkur, Ahmad Yugnakiy, Hibatu-l-haqoyiq, to’rtlik, poetika, poetik vositalar, qofiya, badiiy san’atlar, parallelizm, leksik-morfologik parallelizm, ritmik-sintaktik parallelizm, intonatsion parallelizm.

**Аннотация.** Человеческие ценности являются важнейшим элементом, формирующим человеческую жизнь, определяющим ее быт и принципы. Ценности, занимающие важное место в жизни членов общества, стали важной категорией в процессе воспитания. Сегодня в мировой системе образования мы видим, что донесение исторически сложившихся ценностей каждого общества до подрастающего поколения стало одной из приоритетных задач. Одной из первостепенных задач узбекской системы образования является передача подрастающему поколению национальных, духовно-культурных, общечеловеческих и нравственных ценностей, а также формирование у них этих ценностей. С этой точки зрения важность донесения этих ценностей до молодежи и формирования у них национальных и социальных ценностей еще более возрастает на сегодняшний день, когда ускоряется обмен информацией, а борьба за сознание молодежи день ото дня усиливается. Несомненно, что существование общества зависит от стабильности и устойчивости этих ценностей. Недаром Президент подчеркнул мнение просвещенного ученого Махмудходжи Бехбуди о том, что «величайшее здание в мире – это школа», и подчеркнул необходимость внедрения предмета «Воспитание» в систему общего среднего образования. В узбекском обществе становится необходимым планомерно продолжать воспитание ценностей, которое начинается в семье, в системе среднего и высшего образования, для формирования здорового и интеллектуально высокого поколения. В образовании ориентация молодежи только на приобретение знаний и формирование умений и навыков представляет угрозу для сохранения нравственных и социальных ценностей общества и национального самосознания. В результате общество

приходит в упадок с увеличением числа эгоистичных, аморальных и нравственно бедных членов. С этой точки зрения воспитание национально-духовных, религиозных, нравственных, общечеловеческих и социальных ценностей столь же необходимо, как необходимы знания и умения в образовании.

Основная тема данной статьи отражена в произведении «Хибату-л-хакаик» в духе дидактического назидания, написанном писателем Ахмедом Югнаки, прославленным как «писатель писателей, глава добродетелей». Статья написана как результат долгих лет воспитания и обучения, и содержит анализ некоторых ценностей и оценку их применения в образовательном процессе. При этом мы концентрируем внимание на знаниях, которые являются ядром любой ценности, и на четверостишиях пропагандирующих знание и пользу знаний. Ведь передача морали и красивых манер, нравов и социальных ценностей из поколения в поколение может быть устойчивой только в обществе, уделяющем внимание знаниям. Использование четверостиший, выражающих давние духовные и социальные ценности нашего народа, его взгляды на совершенство человека в сегодняшнем образовательном процессе и использование их будущими поколениями имеет большое значение в развитии нашего общества.

**Ключевые слова:** литература, художественное мышление, Ахмад Югнаки, Хибату-л-хакаик, четверостишие, поэтика, поэтические средства, рифмовка, художественные искусства, параллелизм, лексико-морфологический параллелизм, ритмико-синтаксический параллелизм, интонационный параллелизм.

**Abstract.** Human values are the most important element of human development, defining its way of life and principles. Values that occupy an important place in the lives of members of society have become an important category in the process of education. Today, in the global education system, we see that conveying the historically established values of each society to the younger generation has become one of the priority tasks. One of the primary tasks of the Uzbek education system is the inculcation of national, spiritual, cultural, universal and moral values to the younger generation. From this point of view, the importance of conveying these values to young people and forming their national and social values is even more increasing day by day, when the exchange of information is accelerating, and the struggle for the consciousness of young people is intensifying day by day. Undoubtedly, the existence of society depends on the stability and sustainability of these values. No wonder the President emphasized the opinion of the enlightened scholar Mahmudhoji Behbudi that “the greatest building in the world is a school”, and stressed the need to introduce the subject “Education” into the system of general secondary education. In Uzbek society, it becomes necessary to systematically continue the education of values, which starts from the family, in the system of secondary and higher education, in order to form a healthy and intellectually high generation. In education, the focus of young people only

on acquiring knowledge and forming skills poses a threat to the preservation of the moral and social values of the society and the national identity. As a result, society declines with an increase in the number of selfish, amoral and morally poor members. From this point of view, the education of national-spiritual, religious, moral, universal and social values is just as necessary as knowledge and skills are necessary in education.

The main idea of this article is reflected in the work “Khibatu-l-hakaik” in the spirit of didactic edification, written by the writer Ahmed Yugnaki, famous as “the writer of writers, the head of virtues.” The article was written as a result of many years of education and training, and contains an analysis of some values and an assessment of their application in the educational process. At the same time, we focus on knowledge, which is the core of any value, and on quatrains that promote knowledge and the benefits of knowledge. After all, the transmission of morality and beautiful manners, morals and social values from generation to generation can only be sustainable in a society that pays attention to knowledge.

The use of quatrains expressing the ancient spiritual and social values of our people, its views on human perfection in today's educational process and their use by future generations is of great importance in the development of our society.

**Key words:** literature, artistic thinking, Ahmad Yugnaki, Hibatu-l-haqaik, quatrain, poetics, poetic means, rhyme, artistic works, parallelism, lexico-morphological parallelism, rhythmic-syntactic parallelism, intonational parallelism.

## KIRISH

Jamiyat a'zolarining maqsadlarini ularning intilishlari, ehtiyojlari, bajarayotgan vazifalari va ijtimoiy qadriyatlar belgilab beradi. Bu qadriyatlarning shakllanishi oiladan boshlab, ta'lim va inson faoliyat yuritadigan jamoada davom etadi. Ta'limda bir tarafdin bilim va ko'nikmalar shakllantirilsa, boshqa tarafdin o'quvchiga ma'naviy-ijtimoiy qadriyatlar, tarbiya berib boriladi. Bu borada ta'lim jarayonida bir qancha usullar va vositalardan foydalaniladi. Ana shunday usullardan biri xalq madaniyatini, an'ana va urf-odatlarini o'zida ifoda etgan asarlarning ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanilishidir (Ertürk, 2017:2).

Jamiyatda barqarorlikning davomi faqat va faqat bu jamoada yashagan insonlarning o'zaro qabul qilingan qadriyatlarni egallamasi va ularga rioya etishi bilan bog'liqdir. O'zlari uchun ideal bo'lgan qadriyatlarni sohiblangan jamiyatlar tarixda uzoq vaqt mavjud bo'la olganini ko'rishimiz mumkin. O'zbekona tafakkur va qadriyatlarning shakllanishida va davomiyligida milliy va ma'naviy qadriyatlarning yaxlit ko'rinish olishida mutafakkirlar qarashlari va ular tomonidan yozilgan asarlar muhim ahamiyat kasb etadi. Turkiy adabiyot tatixida yaratilgan bu asaralar nafaqat o'zbek, balki

boshqa xalqlar adabiyoti va dunyoqarashiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan.

Bu asarlar milliy va dunyoviy qadriyatlarining sintezlashuvi bilan madaniy an'analarning, ma'naviy va axloqiy tamoyillarning kelajak avlodga yetkazilishida muhim ahamiyatga egadir (Vag'fakizi, 2014:1).

Bunday asarlardan biri XII asrda Adib Ahmad Yugnakiy tomonidan pandnoma tarzda yozilgan "Hibatu-l-haqoyiq" asaridir. Ushbu asar o'zida turkiy badiiy tafakkur va ma'naviy yetuk dunyoqarashning jamlanganligi va rivojida muhim o'rin tutishi bilan ma'naviy-ijtimoiy qadriyatlar boy aks etgan asar hisoblanadi.

## USLUBLAR

Ushbu tadqiqotning obyekti Adib Ahmad Yugnakiyning "Hibatu-l-haqoyiq" asari bo'lib, asarda o'rin olgan bilim, bilimlilik va ma'rifatga chorlovchi to'rtliklar va ularning ijtimoiy qadriyatlar shakllanishidagi o'rni tahlilga tortiladi.

Asar muallifi haqida bizga yetarli ma'lumotlar yetib kelmagan bo'lsa-da, asarning oxirgi bobida o'zini Adib Ahmad deya zikr etadi. "Hibatu-l-haqoyiq"ga keyinchalik qo'shilgan deya tahmin etiladigan so'nggi uch bobda esa shoir ismi zikr etilmay, balki zarur o'rinlarda Adib deya keltiriladi (Arat, 1992:5). Uning shaxsiyati haqida asarga keyinchalik qo'shilgan ushbu bo'limlardan tasavvur hosil qilish mumkin, ammo hali javobi topilmagan savolar ham yo'q emas (Gülensoy, 1994:421). Muallifi noma'lum bir to'rtlikda uning ko'zi ojiz bo'lganligi haqida ma'lumot berilsa, Amir Sayfiddinga oid bo'lgan bir to'rtlikda uni Adiblar adibi, fozillar boshi deya ulug'langan. Arslon Hoja Tarxonga oid bo'lgan 10 baytlik ilovada esa uning yurti go'zal Yugnak ekanligi, otasi esa Mahmud Yugnakiy ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, asar qoshg'archa tilda, ya'ni qoraxoniylar davri adabiy tilida yozilgani ma'lum (Nig'monov, 2022:141).

Adib Ahmad Yugnakiy haqida bugungi kunga qadar bir qancha manqaba yetib kelgan. Ulardan biriga ko'ra Ahmad Yugnakiy arab va fors tillarini mukammal bilgan, tafsir, kalom, hadis ilmlaridan chuqur boxabar taqvo sohibi olim bo'lgan. Navoiy o'zining "Nasoyimu-l-muhabbat" asarida Yugnakiyning asli turkiy qavmlardan ekanligi va ko'zi tug'ma ojizligi, taqvodor va zehnli inson ekanligini, Adibning Bag'dod tashqarisidagi bir manzilda yashaganligi va Imomi A'zam darslarida ishtirok etish uchun piyoda Bag'dodga qadar piyoda yo'l bosgani, ustozining tahsiniga sazovor bo'lganligi qayd etadi (Gülensoy, 1994: 421) Biroq Yugnakiyning "Hibatu-l-haqoyiq" asari yozmasidan avval Adib unvoni bilan zikr etilib etilmaganligi va uning qalamiga mansub

boshqa asarlar bor-yo'qligi haqida biror ma'lumot berilmagan.

"Hibatu-l-haqoyiq" XII asrda doston shaklida yozilgan bir axloq va odob kitobidir. Asar Muhammad Dod Ispohsolarbekka taqdim etilgan bo'lib, ushbu shaxs qachon va qayerda yashaganligi, uning faoliyati va hukmronligi haqida aniq bir ma'lumot yetib kelmagan (Ercilasun, 2004:333).

"Hibatu-l-haqoyiq" asari diniy va axloqiy tamoyillarning turkiy milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda ifodalangani bilan diqqatga sazovordir. Bir tarafda turkiy xalqlarning falsafiy qarashlarni o'zida jamlangan hikmatli so'zlar, boshqa tarafda esa islom ma'rifatni ifodalagan oyat va hadislar uyg'un holda keltiriladi.

Til xususiyatlari va mazmunidan anglashiladiki, asar "Qutadg'u bilig" ta'sirida yozilgan. Ayniqsa, islomiy bilimlar haqidagi baytlarda didaktik uslubning yetakchiligi, shuningdek, xalq orasida mashhur bo'lgan to'rtliklarining hikmatli ifodalarga boyligi ushbu fikrimizni isbotlaydi.

Asar aruzning muta'qorib (faulun/faulun/faulun/faulun) bahrida doston shaklida yozilgandir. Diniy va ijtimoiy axloq asoslarini kishilar ongiga ta'sirchan yetkazish maqsadida ko'p o'rinlarda oyat va hadislar bilan dalillangan va soddada shaklda bayon etilgandir. Shu sababdan ham asarga pandnoma tusi yog'rilgandir. Hibatul haqoyiqda shu davrga qadar turk-islom adabiyotida ilk bor katta hajmda Qur'on oyatlari va hadislardan foydalanilgan bo'lib, shubhasiz, bu tarjimalarni Qu'roni karim va hadislarining turkiyga o'girilishi bilan bog'liq ilk urinishlar sifatida baholash mumkin.

Ushbu asarda Islom dini tamoyillari turkiy madaniyat bilan uyg'unlikda berilgan bo'lib, muallif ta'kidlaganidek "mavoiz" shaklini olgan. Bir tomondan turkiy falsafiy qarashlarning natijasi bo'lgan hikmatli jumlar, bir tarafdan Islom dini qonun-qoidalarini o'zida jamlagan Qu'ron oyatlari va hadislar sintezlashgan holda berilganki, natijada asar ham bir pandnoma, hamda diniy-ma'rifiy manba, axloqiy-didaktik tus oladi. Bu esa muallif asar yozilgan davrning ijtimoiy va diniy turmush tarzi, qadriyatlarini o'zida aks ettira olganini ko'rsatadi.

## USLUBLAR

Bugungi kunda, hayotimizda faol qo'llanilayotgan bilimlilik tushunchasini "Hibatu-l-haqoyiq" asarida bilimlilik tushunish, bilimning qiymati va donolik kabi shakllarda uchramiz. Ahmad Yugnakiy o'z asarini bilim, donolik, bilimlilik, bilimning ahamiyati, bilimsizlikning zararlari va bilimning qiymati kabi mavzularni yoritgan **"Bilimning foydasi va**

**bilimsizlikning zarari haqida**” nomli bobdan boshlagan. Bu esa insonning butun hayotida bilimning o’rni yuqori ekanligini hamda bilimli bo’lishga targ’ib etish naqadar muhim ekanligini ko’rsatadi:

Yugakiy ushbu bobni shunday boshlaydi:

*Biligdin urur-men sözümgä ul-a,*

*Biligligka yä dost özüñni ula.*

*Bilig birlä bulmur sa’ādat yoli,*

*Bilig bil, sa’ādat yolini bul-a.* (Yugnakiy, 2019:76)

#### Ma’nosi:

*So’zimga asos qilib bilimdan so’z ochaman,*

*Bilimliga, ey do’st, o’zingni bog’lagin.*

*Saodat yo’li bilim tufayli topiladi.*

*Bilim o’rgan, saodat yo’lini izlab top.* (Yugnakiy, 2019:10)

Ahmad Yugnakiy ushbu to’rtlik orqali bilimning jamiyatda va o’zaro munosabatlardagi ahamiyatini alohida ta’kidlab, insonni bilimga intilishi va uni egallashi lozimligini baxt-u-saodat faqatgina egallangan bilim orqali qo’lga kiritilishini ifoda etadi. Shuningdek, ilk misradagi “so’zimga asos qilib bilimdan so’z ochaman” jumlasini muallif ushbu asarini ham bilimga tayangan holda yozganini ko’rsatadi.

Ushbu to’rtlik nafaqat mazmunan boy, balki shaklan ilk turkiy adabiyotga oid xususiyatlarni ham o’zida aks ettiradi.

Barmoq vaznida yozilgan to’rtlikning har bir misrasi 11 bo’g’inli bo’lib, a-a-b-a shaklida qofiyalangan. Qadimgi turkiy she’riyatning asosi bo’lgan parallelizm tarkibidagi takrorlar to’rtlikdagi ritmlilik va ko’tarinkilikni kuchaytirgan. Bilig so’zining har bir misra boshida takrorlanishi va buning natijasida vujudga kelayotgan leksik parallellik hamda b tovushining alliteratsiyasi, shuningdek, **ul-a, ula** so’zlari hamda **sa’ādat yoli** birliklarining takrorini alohida qayd etish lozim.

Yugnakiy ushbu bobda bilimning ahamiyatiga to’xtalib bo’lgach, bilimli va bilimsiz insonlarni taqqoslaydi. Keyingi to’rtlikda bilimli insonlarning olindek qimmatli ekanligini va bilimsiz insonlarning arzimasi aqcha qiymatida ekanligini ta’kidlaydi.

*Bahaliğ dinar-ol biliglig kişi,*

*Bu jāhil biligsiz bahasiz bişi.*

*Biliglig biligsiz qačan teñ bolur?*

*Biliglig tişi – er, jāhil er – tişi.* (Yugnakiy, 2019:77)

#### Ma’nosi:

*Bilimli kishi qiymatli dinordir,*

*Johil va bilimsiz kishi arzimasi chaqadir.*

*Bilimli bilan bilimsiz qachon teng bo’lgandi?*

*Bilimli ayol –erkak, johil erkak esa xotindir.*

(Yugnakiy, 2019:10)

Bilimli va joxil insonlar qarshilastirilgan bu to’rtlikda bilimli va bilimsiz hech ham teng bo’lmagligini ta’kidlaydi. Aslida bu ta’kidning manbasi Qur’oni karim bo’lib, Zumar surasi 9-oyat mazmuni bir misraga ustalik bilan jo etilgan va to’rtlik mazmuniga singdirib yuborilgandir:

**Ayting: «Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo’lurmi?! Darhaqiqat, faqat aql egalarigina pand-nasihat olurlar».** (Zumar surasi, 9-oyat)

To’rtlik davomida esa bilimli bir ayolning bir erkakchalik kuchga sohib ekanligini va, aksincha, bilimsiz bir erkakning bir ayolchalik kuchsiz hamda ojiz holda ekanligini ta’kidlaydi. Bilimning jinsiyat tanlamasligi, bilim egasi xotinmi, erkakmi barobar ekanligi ham ifodalangan.

Mazmun mos shakl bilan ifodalangan. Har bir qator 11 bo’g’indan, a-a-b-a shaklida qofiyalangan. Har bir qatorda **biliglig** so’zining takrori leksik parallelizmi hosil qilib ohangdorlikni oshirgan bo’lsa, har bir misraning **b** tovushi bilan boshlanishi alliteratsiyani hosil qilib ritmlilik kuchaytirgan. Misralarda (**biliglig - biligsiz, er-tişi**), shuningdek, misralararo (1 va 2 misralar) tazodni hamda to’liq tazod asosiga qurilgan (4 misra) misrani ko’rishimiz mumkin. Qolaversa, yozuvchi tashbeh, ishtiyoq, iqtibos san’atlaridan ham unumli foydalangan.

Muallif keyingi to’rtlikda go’zal bir tashbeh bilan bilimning inson uchun naqadar qiymatli ekanligini uqtiradi:

*Söñäkkä yilig-teğ erängä bilig,*

*Erän körki ‘aql-ol, söñgäknün – yilig.*

*Biligsiz yiligsiz söñäk-teğ xali,*

*Yiligsiz söñäkkä sunulmas elig.* (Yugnakiy, 2019:77)

#### Ma’nosi:

*So’ngakka ilik qanchalik kerak bo’lsa, er kishiga ham bilim shunday lozim,*

*Er kishining ko’rki – aqldir, so’ngakning esa – ilik.*

*Bilimsiz (kishi) iliksiz so’ngakdek bo’sh go’yo,*

*Iliksiz so’ngakka qo’l uzatilmaydi.* (Yugnakiy, 2019:10)

Yugnakiy to’rtlikda bilimning, so’ngakka jon bergan ilikka o’xshatib, bilimning inson uchun hayotiy bir ahamiyat kasb etishini ifodalaydi.

Shuningdek, so'ngakning bezagi ilik ekanligini, insonning bezagi esa bilimligini, iliksiz so'ngak hech narsaga yaramaganidek bilimsiz inson ham ishga yaramaydigan, qiymatsiz ekanligini tushuntiradi.

Bu to'rtlik ham boshqa to'rtliklar kabi shaklan mukammal holda bitilgan. 11 bog'inli qatorlar a-a-b-a shaklida qofiyalangan. Boshqa to'rtliklardan farqli ravishda qatorlar boshida alliteratsiyani ko'rmaymiz. Biroq **söñäk, yilig** kabi so'zlarning bo'lishli va bo'lishsiz holdagi takrori to'rtlikka ohangdorlik baxsh etadi.

Bilimning inson uchun qiymatini ko'rsatgan Yugnakiy keyingi to'rtlikda foni bo'lgan insonning bilimi bilan mangulikka erishishi mumkinligini quyidagicha izohlaydi:

*Bilig bildi, boldi erän belgülüg,  
Biligsiz tiriglä yitük körgülüg.  
Biliglig er öldi, atı ölmädi,  
Biligsiz esän erkän, atı–ölüg.* (Yugnakiy, 2019:77)

#### Ma'nosi:

*Kishi bilim o'rganib, taniqli bo'ldi,  
Bilimsizlik tiriklikdagi o'chmas ko'rgulikdir.  
Bilimli kishi o'lsa ham, uning oti o'lmaydi,  
Bilimsiz esonligida ham oti o'likdir.* (Yugnakiy, 2019:10)

Mullif insonning jamiyatda faqatgina bilimi bilan tanilishini, bilimsiz holda yashab tursa-da qiymatsiz bir vujudan iborat ekanligini ifodalaydi. Mullif hadisga tayangan holda bitgan ushbu to'rtlikda abadiylikning ortidan qoldirgan ilmi tufayli bo'lishini uqtiradi. **Hadis:** *Abu Hurayra r.a. dan rivoyat qilinadi: Rasululloh s.a.v. shunday dedilar: "Kishi o'lganidan so'ng shu uch narsadan boshqasidan amali kesiladi. Bulardan birinchisi doim o'qilgan va foydalanilgan bir asar, ikkinchisi foydalanilgan ilm, uchinchisi esa marhum uchun duo etgan hayrli bir avlod".*

To'rtlik an'anaga muvofiq 11 bo'g'inli qatorlardan tashkil topgan hamda a-a-b-a shaklida qofiyalangan. Qofiyadagi ohangdorlikni sifatdosh yasovchi **-lüg, -lug** qo'shimchasi ta'minlamoqda. Har bir qatorda **bilig** so'zining bo'lishli va bo'lishsiz holdagi takrori leksik parallelizm hosil qilgan bo'lsa, har bir misra **b** tovushi bilan boshlanib alliteratsiya hosil qilingan. Misralarda (**biliglik - biligsiz, öldi-ölmädi**), shuningdek, misralararo (1 va 2, 3 va 4 misralar) tazodni ko'ramiz. Muallif ishtiyoq san'atidan ham unumli foydalangan.

Bilimli va bilimsizni ko'p o'rinda taqqoslagan muallif keyingi to'rtlikda:

*Biliglig biriñä, biligsiz miñin,  
Teñäkli teñädi biliglig teñin.  
Baqa körgil emdi uqa, sinayu,  
Ne näñ bar bilig-teg asiğliğ öñin.* (Yugnakiy, 2019:77)

#### Ma'nosi:

*Bilimning qadrini bilgan kimsaga ko'ra,  
Bir bilimli ming bilimsizga tengdir.  
Endi uqib, sinab boqib ko'rgin,  
Bilimdek foydali yana nima bor?* (Yugnakiy, 2019:11)

Ushbu to'rtlikda bilimning qiymatini bilgan insonga ko'ra bir bilimning ming bilimsizga tengligi aytiladi.

Bilimning qiymatini va foydasini bilmoqchi bo'lganlar yon-atrofdagi insonlarga qarashi lozimligi ta'kidlanadi.

Ushbu to'rtlik ham yuqoridagilari kabi 11 bo'gin hamda a-a-b-a shaklida qofiyalangan. Ilk misraning tazod bilan boshlanishi o'quvchi e'tiborini o'ziga jalb etishga xizmat qilgan. Bugungi kunda xalqimiz qo'llaydigan **"Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni"** maqolining o'sha davrdagi ko'rinishi sifatida baholashimiz mumkin bo'lgan ushbu misra kishi xotirasida nihoyatda oson saqlanib qoladi. Keyingi misrada **teñ** o'zakli so'zlarini qo'llash bilan muallif ishtiyoq san'atini vujudga keltiribgina qolmay, to'rtlik ritmiligini ham oshirgan. Bu esa to'rtlikning yodda qolishini osonlashtirib, xalq orasida keng tarqalishiga xizmat qilgan.

Yugnakiy o'z asarini shakllantirar ekan, o'zi yashagan jamiyatning an'ana va odatlari bilan bir qatorda e'tiqodidan kelib chiqqan fikrlarni ham bayon etganini ko'ramiz. Buni bilim olishning bir diniy vazifa ekanligini bir hadisga tayangan holda izohlangan quyidagi baytda ko'rishimiz mumkin:

*Bilig birlä 'ālim yuqar yuqladi,  
Biligsizlik erni cökärdi quđi.  
Bilig yind usanma, bil ol haq rasul:  
"Bilig Čindä ersä, siz arqañ", tedi.* (Yugnakiy, 2019:77)

#### Ma'nosi:

*Bilimi bilan olim yuqori ko'tarildi,  
Bilimsizlik esa kishini quyi cho'ktirdi.  
Bilim izla, g'ofil bo'lma, bilki, rasul haqdir:  
"Bilim Chinda bo'lsa ham, siz uni izlang", – dedi.* (Yugnakiy, 2019:11)

Jaholatning insonni tubanlashtirishini, bilim esa uni yuqoriga ko'tarib, yuksaktirishini bayon etarkan, inson yuksakishni istasa bilim olishi lozimligini uqtiradi. Va bilimga intilish dinda ham rag'batlantirilishini ta'kidlar ekan, to'rtinchi qatorda bir hadis keltiradi. **Hadis: "Ilm, Chinda bo'lsa ham, talab qilinglar!" – dedi.**

Iqtibos san'atidan foydalanib shakllantirilgan ushbu to'rtlik ham shaklan boshqalari bilan bir xil – 11 bo'g'inli va a-a-b-a shaklida qofiyalangan. Faqat bu yerda qofiya qadimgi turkiy she'riyatda bo'lgani kabi morfemik birliklarning takrori hisobiga shakllangan. **-di** shaxs-son qo'shimchasining takrori misralararo ohangdorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu to'rtlikda ham tazod (**bilig-biligsizlik, yuqladi - öökärđi**), ishtiyoq (**bilig, bil**), iqtibos (4-misradagi hadis) san'atlari qo'llanganini ko'ramiz.

Keyingi to'rtlikda muallif bilimning qadrini faqat bilimlilargina bilishi, uning lazzatini ham bilimli insonlar ola bilishini ta'kidlaydi:

*Biliglig biligni ödärgän bolur,  
Bilig qadrini ham biliglig bilür.  
Bilig bildürür, bil, bilig qadrini,  
Biligni biligsiz utun ne qilur.* (Yugnakiy, 2019:78)

#### Ma'nosi:

*Bilimli doim bilim izlaydi,  
Bilimning qadrini ham bilimli biladi.  
Bilki, bilim qadrini bilimning o'zi bildiradi,  
Bilimsiz tuban bilimni ne qiladi?* (Yugnakiy, 2019:11)

Bu to'rtlikning ilk bayti sinatktik parallelizm asosiga qurilgan. Bu hodisa ham qadimgi turk she'riyatida keng tarqalgan edi. Ilk turk-islom davri adabiyoti namunalari, xossatan, "Hibatu-l-haqoyiq"ning arab adabiyoti ta'sirida aruzning mutaqorib bahrida yozilganiga qaramay, turkiy badiiy tafakkurni o'zida aks ettirishi, to'rtliklar hamda turkiy she'riyat vositalarining qo'llanilishi mualliflarning adabiy merosga naqadar e'tiborli bo'lganidan dalolat beradi. Aniqllovchi+to'ldiruvchi+ega+fe'l // Aniqllovchi+to'ldiruvchi+ega+fe'l shaklida bir xil sinatktik qurilishga ega bayt nafaqat sintaktik, balki leksik (**biliglig, bilig**), intonatsion (**b** tovushining alliteratsiyasi) parallelizmi ham ko'ramiz. Shu o'rinda **bilig** so'zining takrori butun boshli to'rtlikda ko'rinadi va ritmilikni kuchaytiradi. 11 bo'g'inli qatorlar yakunida kelgan **-ur, -ür** qo'shimchalarining takrori a-a-b-a tarzidagi qofiyani vujudga keltiradi. Bu safar ham to'rtlikda tazodni (**biliglik-biligsiz**), ishtiyoqni (**bilig, bil**), tashxis (**bilig bildirur**) ko'ramiz.

Bilimning insonni yuksaktirishini, bilim qadrini faqat bilimlilar bilishini ta'kidlagan muallif keyingi to'rtlikda bilimsiz insonlarga haq gaplar ham foydasiz ekanligini, ularga har qancha pand-nasihah qilma natijasiz bo'lishini aytadi:

*Biligsizgä haq söz tatıǵsız erür,  
Añar va 'z-u pand-ol asıǵsız erür.  
Ne türlüǵ arıǵsız arır yumaqın,  
Jähil yup arımas, arıǵsız erür.* (Yugnakiy, 2019:78)

#### Ma'nosi:

*Bilimsizga to'g'ri so'z totsiz eshitiladi,  
Unga o'gut va nasihat foydasiz erur.  
Necha turli kirlar yuvsa ketadi,  
Johil yuvib toza bo'lmaydigan kirdir.* (Yugnakiy, 2019:11)

Ushbu to'rtlik bilan Yugnakiy bilimsizlarning bilim haqidagi tushunchalari ochiqlashga urunadi. Shuningdek, johillikning bir ketmas dog' ekanligini va bu dog'ni yuvish bilan ketkazib bo'lmasligini bayon etadi.

Shaklan deyarli yuqoridagi to'rtliklar bilan bir xil bo'lgan bu baytlarda tashqi qofiyadan farqli ravishda a-a-a-a shaklida kelgan ichki qofiya (**tatıǵsız-asıǵsız-arıǵsız-arıǵsız**) mavjud.

Bilimli va bilimsizni taqqoslashda davom etgan muallif keyingi to'rtlikda bilimli inson hayoti davomida har ishni vaqtida va o'z o'rnida bajargani uchun ham aslo pushaymonlik sezmasligini ta'kidlaydi:

*Biliglig kişi, kör, bilür iş öñin,  
Bilip etär işni, ökünmäş keñin.  
Qamuǵ türlüǵ iştä biligsiz öñi,  
Ökünč-ol, añar yoq oñanda adın.* (Yugnakiy, 2019:78)

#### Ma'nosi:

*Bilimli kishi, ko'rgin, har ishning paytini biladi,  
Ishini bilib qiladi, keyin o'kinmaydi.  
Hamma ishda bilimsizning qismati o'kinchidir.  
Unga bundan o'zga qismat yo'qdir.* (Yugnakiy, 2019:11)

Aksincha, bilimsizning amalga oshirgan har ishi esa, deydi muallif so'nggi misralarda, yakunda pushaymonlik keltiradi. Shuningdek, bu to'rtlik orqali bilimlilik insonni mas'uliyat egasiga aylantirishini ifodalaydi.

Shaklan boshqalari bilan bir xil bo'lgan bu to'rtlikda baytlararo mazmuniy qarshilantirishni ko'ramiz.

*Biliglig keraklig sözüg sözlüyür;  
Keräksiz sözini kömüp kezlüyür.  
Biligsiz ne aysa, ayur uqmadin,  
Anin öz tili öz başini yeyür.* (Yugnakiy, 2019:79)

**Ma'nosi:**

*Bilimli kishi kerakli so'zni so'zlaydi,  
Keraksiz so'zni ko'mip yashiradi.  
Bilimsiz nimayiki aytsa, uqmay aytadi,  
Uning o'z tili o'z boshini yeydi.* (Yugnakiy, 2019:12)

Bilim egasi keraksiz va nojo'ya so'zlarni so'zlashdan tiyilishini, faqatgina o'rni kelganda mos so'zni so'zlashini ifodalagan muallif ko'p gapirishning bilimsizlikdan ekanligini, shuningdek, bilimsiz inson johilligi tufayli aytgan gapidan o'ziga ziyon yetkazib qo'yishini uqtiradi hamda insonlarni bilimli bo'lishga chorlaydi.

Irsoli masal san'atini 4-misrada ko'rishimzi mumkin. Boshqa shakliy xususiyatlari yuqoridagilar bilan bir xil.

Inson erishishni istagan barcha narsasiga bilimi tufayligina erishgani kabi Yaratganni ham aynan ilmi orqali topadi. Bilimsizlik esa insonga hech bir narsa keltirmaydi:

*Bilig birlä bilnür törätkän iði,  
Biligsizlik içrâ qanî xayr yidi.  
Bilig bilmägändin bir ança bođun,  
Öz elgin but etip, iđim bu, tedi.* (Yugnakiy, 2019:79)

**Ma'nosi:**

*Yaratgan Tangri bilim bilan anglanadi,  
Bilimsizlikdan xayr topgan bormi?  
Bilim bilmagandan ba'zi bir xalq  
O'z ilgini but qilib: "Bu – xudoyim", –dedi.* (Yugnakiy, 2019:12)

Bilimsizlar johilligi tufayli o'z qo'llari bilan yasagan butlarga sig'inganini ta'kidlar ekan, muallif bilimsizlikning insonni naqadar nochor va tuban ahvolga solib qo'yishini ko'rsatmoqchi bo'ladi.

Leksik (**bilig**) hamda intonatsion (**b** tovushining alliteratsiyasi) parallelizm qo'llanganini hisobga olmasa, boshqa to'rtliklar bilan shaklan bir xil.

Bob yakunida kelgan to'rtlikda esa muallif bilimli insonlar og'zidan chiqqan har so'z qiymatli bo'lib, barcha jamiyatlar bu qiymatning qadrini bilishlarini anglatadi. Bilim tuganmas boylik, nasabsiz uchun esa tuganmas nasab ekanligini ta'kidlab, bilimning naqadar qiymatli ekanligini yana bir bor uqtiradi va bobga yakun yasaydi.

*Biliglig sözi pand-nasihät adab,  
Biligligni ögdi 'ajam ham 'arab.  
Tawarsizğa bilgi tügänmäş tawar,  
Nasabsuzğa bilgi tügänmäş nasab.* (Yugnakiy, 2019:79)

**Ma'nosi:**

*Bilimlining so'zi pand-u nasihat adabdir,  
Bilimlini ajam ham, arab ham maqtadi.  
Moli bo'lmagan uchun uning bilimi tuganmas xazinadir,*

*Nasabsizga esa uning bilimi tuganmas nasabdir.* (Yugnakiy, 2019:12)

Shaklan, yuqoridagilar bilan bir xil bo'lgan ushbu to'rtlik sintaktik parallelizm asosiga qurilgan hamda xalq tilida maqoldek bo'lib qolgan mazmundor bayt bilan yakun topadi.

**NATIJA**

XII asrda Adib Ahmad Yugnakiy tomonidan bitilgan pandoma "Hibatu-l-haqoyiq" diniy va ijtimoiy qadriyatlarga boyligi ahamiyat molikdir. Adib Ahmad o'z asarida bilimlilik, hushyorlik, jo'mardlik, kamtarinlik va so'zning qiymati kabi qadriyatlarga alohida urg'u beradi.

Muallif bular ichida bilimlilikka ko'proq e'tibor qaratib, 12 to'rtlikda bu borada bahs yuritadi. Bu to'rtliklarda muallif bilimlilik haqida: bilimning qiymati va lozimligi va shu sababdan ham insonning bilim ortidan quvishi kerakligi, bilimning shaxsiy va ijtimoiy qiymatini faqatgina bilimli insonlar anglashi, bilimning insoniyatga qanchalik foyda keltirilishi haqida fikr yuritadi.

Shu bilan bir qatorda, bir jamiyat uchun bilim va donolikning ahamiyatini, bilim aohiblariga hurmat ko'rsatish lozimligini uqtiradi. Ilk turk-islom madaniyati asarlari Qobusnoma hamda Qutadg'u biligda ham bilimlilikka keng o'rin ajratilgan. Bu uch asardagi ilm haqidagi qarashlar shuni ko'rsatadiki, turkiy jamiyatlarda bilimlilik muhim qadriyat sifatida ulug'langan va targ'ib etib kelingan.

Asarda axloqiy-didaktik tushunchalarni jamiyatga o'rgatish maqsadida mavoiz usulida yozilgani uchun ham unda bir qancha qadriyatlar haqidagi fikrlar jam bo'lgan. Asar shaklan aruzning mutaqorib bahrida yozilgan. Ammo shunga qaramasdan, asarda qadimgi turk she'riyatiga xos bo'lgan vositalar (parallelizm, morfologik takror, qofiyalanish tartibi, barmoq vazni) ning qo'llangani turkiy badiiy tafakkur an'analarining davom etgani, arablar bosqini natijasida unutilmay, balki takomillashganining guvohi bo'lamiz.

## MUHOKAMA

Tarixga nazar solar ekanmiz, Turk-islom jamiyatlarida bilim va bilimlilikning muhim o'rnini borligini ko'ramiz. Shu sababdan ham turk-islom madaniyatida yaratilgan ko'plab asarlar bilim va bilimlilikning ulug'laganini ko'ramiz. Ana shunday asarlardan biri "Qutadg'u bilig"dir. Yusuf xos Hojib o'z asarida bilimning jamiyatlarga, ayniqsa, turkiy jamiyatga foydasini tushuntiradi: *"Bizdan avval o'tganlarga e'tibor bersak, xoh oddiy xalqdan, xoh qo'lida dunyosi bo'lgan bekdan bo'lsin qay biri bilimni topgan bo'lsa, ana o'sha zamon va dunyoga hokim bo'lgandir"*. (Yusuf xos Hojib, 2019:51)

Yusuf xos Hojibdan ilhomlanib, "Hibatu-l-haqoyiq"ni yozgan Yugnakiy o'z davri turmush tarzi, dunyoqarashi va e'tiqodidan ta'sirlangan holda asarini ham bilim haqidagi bobdan boshlaydi. U o'z asarida bilimlilikning shaxs va jamiyat uchun ahamiyati, bilimli insonlarning afzalliklari kabi mavzularda fikr yuritib, turk-islom madaniyati, Islom e'tiqodining bilimga bergan qiymatini ko'rsatgan.

Turkiy xalqlar uzoq davr mobaynida bilimga bergan e'tiborlarini saqlashgan hamda Beruniy, Ibn Sino, Farobiy, Ulug'bek va boshqa bir qancha olimlarni yetishtira olganlar. Afsuski bugungi kunda bilim o'zining tarixdagi kabi qadr-qiymatini jamiyatda to'la topolmayapti. Jamiyat a'zolarini yoshlikdan bilimga rag'batlantirish, ularda ilm olishga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otishda "Hibatu-l-haqoyiq" kabi asarlarda keltirilgan mazmunan boy to'rtliklarning ahamiyati yuksak deb hisoblaymiz.

## XULOSA

"Hibatu-l-haqoyiqdagi" bayt va to'rtliklar o'zining boy ma'naviy va badiiy xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Sof pandnoma ruhida bitilgan asarda jamiyat a'zolarining komil inson bo'lib yetishishlari uchun ularda tarbiyalanishi lozim bo'lgan umuminsoniy hamda shaxsiy qadriyatlar, diniy e'tiqod bilan bog'liq tushunchalar bayon etiladiki, ushbu asar va undagi to'rtliklardan bugungi kun ta'lim-tarbiya tizimida foydalanish nihoyatda samarali natija beradi. Ajdodlarimizning uzoq va boy hayotiy tajribasi, donoligi mahsuli bo'lgan ilk turk-islom adabiyoti namunalaridagi bu tur baytlar va to'rtliklar, shubhasiz, bugungi inson ongi uchun kurash ketayotgan, ma'lumotlar oqimi nihoyatda katta va saralanmagan zamonda yosh avlodni haqiqiy turkiy dunyoqarash hamda ota-bobolarimiz kundalik hayotining ich-ichigacha kirib borgan, turli kimsalar manfaati bilan yo'g'rilmagan, haqiqiy ma'nodagi islom dini va uni yashash bilan bog'liq masalalarda to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi mayoq bo'la oladi.

## ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаева, Н. Д. (1978). Синтаксическая синонимия в современном азербайджанском языке (на основе глагольных оборотов и придаточных предложений) (Doctoral dissertation, Баку, 1978.—40 с).
2. Arat R. R. (1992). Atabetü-l Hakayık (Edib Ahmed b. Mahmud Yükneci), 2. Baskı, Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi.
3. Birkar G. Z. (2016). Kutadgu Biligde Değerler Öğretimi. Yüksek Lisans Tezi, İnönü Üniversitesi Eğitim Bilimleri Enstitüsü Temel Eğitim Bölümü Sınıf Eğitimi Anabilim Dalı, Malatya.
4. Ercilasun, A. B. (2004). Başlangıçtan Yirminci Yüzyıla Türk Dili Tarihi, 1. Baskı, Ankara: Akçağ Yayıncılık.
5. Ertürk A. (2017) Edib Ahmet B. Mahmud Yükneci'nin Atabetü'l Hakayık adlı eserinin sosyal bilgiler öğretim programında yer alan değerler açısından incelenmesi (Master's thesis, Adnan Menderes Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü)
6. Gülensoy, T. (1994). "Edib Ahmed Yükneci", Diyanet İslam Ansiklopedisi, 10, 421–422.
7. Жирмунский, В. М. (1964). Ритмико-синтаксический параллелизм как основа древнетюркского народного эпического стиха. Вопросы языкознания, (4), 3-24.
8. Nig'monov Mr, A. (2020). Rhythmic-syntactic parallelisms in old turkic poetry (by example of extract from "Devon lugati-t-turk"). The Light of Islam, 2020(1), 185-191.
9. Nig'monov, A., Rustamiy, S., Nasirova, M., & Djafarov, B. (2020). Lexical Parallels Used In The Quatrains In The Dīwān Lughāt Al-Turk. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(3), 5301-5305.
10. Nig'monov A. (2022) Adib Ahmad Yugnakiyning "Hibatu-l-haqoyiq" asarida ma'rifiy qarashlar/ "Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon" mavzuidagi II xalqaro ilmiy amaliy simpozium materiallari. Toshkent, B. 140-143. <https://moturidiy.uz/oz/news/2004>
11. Okutan S. (2015). Kabusnamenin Değerler Eğitimi Açısından İncelenmesi, Yüksek Lisans Tezi, Mevlana Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Türkçe Eğitimi Anabilim Dalı, Konya.
12. Vagıfkızı G. (2013). Etno-Kültüroloji Değerler Kodeksi Olarak: Edip Ahmet Yükneci'nin Atebetü-l-Hakâyık Eseri, Türk Dünyası Bilgeler Zirvesi: Gönül Sultanları Buluşması Mayıs, Eskişehir.
13. Yugnakiy Adib Ahmad (2019) Hibatu-l-haqoyiq. Q.Sodiqov transkripsiyasi, talqini va tahlili ostida. Akademnashr nashriyoti, Toshkent.
14. Yusuf Has Hacip. (2019). Kutadu Bilig. (Çev. Muzaffer Tunçel), T.C. Gençlik ve spor bakanlığı yayinlari, Ankara
15. Ҳомидий Х. ва б. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Т., 1970. – Б. 153-154.
16. Хотамов, Н., & Саримсоков, Б. (1983). Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати: ўрта мактаб ўқувчилари, тил ва адабиёт ўқитувчилари ҳамда филолог студентлар учун. – Т., Ўқитувчи.

REFERENCES:

1. Abdullaeva, N. D. (1978). Sintaksicheskaya sinonimiya v sovremennom azerbaydjanskom yazыke (na osnove glagolъных oborotov i pridatochnыx predlojeniy) (Doctoral dissertation, Baku, 1978.—40 s).
2. Arat R. R. (1992). Atabetü-l Hakayık (Edib Ahmed b. Mahmud Yükneki), 2. Baskı, Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi.
3. Birkan G. Z. (2016). Kutadgu Biligde Değerler Öğretimi. Yüksek Lisans Tezi, İnönü Üniversitesi Eğitim Bilimleri Enstitüsü Temel Eğitim Bölümü Sınıf Eğitimi Anabilim Dalı, Malatya.
4. Ercilasun, A. B. (2004). Başlangıçtan Yirminci Yüzyıla Türk Dili Tarihi, 1. Baskı, Ankara: Akçağ Yayıncılık.
5. Ertürk A. (2017) Edib Ahmet B. Mahmud Yükneginin Atabetül Hakayık adlı eserinin sosyal bilgiler öğretim programında yer alan değerler açısından incelenmesi (Masters thesis, Adnan Menderes Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü)
6. Gülensoy, T. (1994). “Edib Ahmed Yükneki”, Diyanet İslam Ansiklopedisi, 10, 421–422.
7. Jirmunskiy, V. M. (1964). Ritmiko-sintaksicheskiy parallelizm kak osnova drevnetyurkskogo narodnogo epicheskogo stixa. Voprosы yazыkoznaniya, (4), 3-24.
8. Nig'monov Mr, A. (2020). Rhythmic-syntactic parallelisms in old turkic poetry (by example of extract from “Devon lugati-t-turk”). The Light of Islam, 2020(1), 185-191.
9. Nig'monov, A., Rustamiy, S., Nasirova, M., & Djafarov, B. (2020). Lexical Parallels Used In The Quatrains In The Dīwān Lughāt Al-Turk. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(3), 5301-5305.
10. Nigmonov A. (2022) Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibatu-l-haqoyiq” asarida marifiy qarashlar/ “Moturidiylik talimoti va hozirgi zamon” mavzuidagi II xalqaro ilmiy amaliy simpozium materiallari. Toshkent, B. 140-143. <https://moturidiy.uz/oz/news/2004>
11. Okutan S. (2015). Kabusnamenin Değerler Eğitimi Açısından İncelenmesi, Yüksek Lisans Tezi, Mevlana Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Türkçe Eğitimi Anabilim Dalı, Konya.
12. Vagıfkızı G. (2013). Etno-Kulturoloji Değerler Kodeksi Olarak: Edip Ahmet Yükneki'nin Atebetü-l-Hakâyık Eseri, Türk Dünyası Bilgeler Zirvesi: Gönül Sultanları Buluşması Mayıs, Eskişehir.
13. Yugnakiy Adib Ahmad (2019) Hibatu-l-haqoyiq. Q.Sodiqov transkripsiyasi, talqini va tahlili ostida. Akademnashr nashriyoti, Toshkent.
14. Yusuf Has Hacıp. (2019). Kutadu Bilig. (Çev. Muzaffer Tunçel), T.C. Gençlik ve spor bakanlığı yayınları, Ankara
15. Homidiy H. va b. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – T., 1970. – B. 153-154.
16. Hotamov, N., & Sarimsoqov, B. (1983). Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati: o'rta maktab o'quvchilari, til va adabiyot o'qituvchilari hamda filolog studentlar uchun. – T., O'qituvchi.